

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUXTOROVA BARNO ALISHEROVNA

“BOYLIK” KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Muxtorova Barno Alisherovna

“Boylik” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari3

Mukhtorova Barno Alisherovna

Linguoculturological features of the concept of “wealth”.....25

Мухторова Барно Алишеровна

Лингвокультурологические особенности концепта «богатство».....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MUXTOROVA BARNO ALISHEROVNA

“BOYLIK” KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.1.PhD/Fil3233 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xojaliyev Ismoiljon Tajibayevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Madrahimov Ilhomjon Sobirovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Marufova Zulfiya Nabiyevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100151, Farg‘ona shahri, B.Marg‘inoniy ko‘chasi 105-uy. Tel: (99873) 244-57-82; email: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi 19-uy. Tel: (99873) 244-44-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ da tarqatildi.

(2025-yil _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari doktori, professor

M.Y.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va tafakkur munosabatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki tilni murakkab sistema sifatida o'rganish uchun mazmun va shakl munosabatlari, ularning kommunikativ, semiotik tabiatini tadqiq etish, olingan xulosalardan sun'iy ong muammolarini hal etishda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda lingvistik faktlarga antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi uchun asos bo'lmoqda. Chunki borliq, obyektiv voqelik inson ongiga bog'liq bo'lmay, u o'ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlansa ham, bu qonuniyatlar inson ongida aks etadi. Uning inson ongidagi aksi milliy-mental, ruhiy, ijtimoiy-siyosiy, lingvomadaniy omillar asosida yuzaga keladi. Shuning uchun til va tafakkur birligiga lingvomadaniy jihatdan yondashish amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida tilga lingvomadaniy jihatdan yondashish kognitiv paradigmaning shakllanishiga olib keldi. Lisoniy faktlarning shu tilda so'zlashuvchi til egalarining milliy-madaniy tafakkuri bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etish, xususan, "boylik" konseptining semantik tarkibi, uning konseptosfera yaratish imkoniyatlari, dunyoning konseptual va lingvistik manzarasini yaratishdagi o'rni nazariy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida konsept va unga xos belgilarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Konsept va uning turlari, kognitiv paradigmadagi konseptning o'rni, lisoniy voqelanishi, ssenariy, skript, freym, geshtalt, lisoniy-kognitiv faoliyatning milliy-madaniy xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa ham, konseptning semantik, sintaktik, sintagmatik, pragmatik, derivatsion xususiyatlari va ular bilan bog'liq holda ayrim olingan konseptlarning, jumladan, "boylik" konseptining lingvomadaniy belgilari, uning milliy-mental, leksik, frazeologik talqinlari, o'zbek milliy madaniyatida "boylik" konsepti, "boylik" konseptining assotsiativ maydoni, geshtalt va "boylik" konseptining semantik tarkibi, semantik-struktur tuzilishi kabilarni o'rganish ehtiyoji mavjud. Zero "...endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilm-fanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirishdir"¹. Hozirgi davrda dunyo miqyosida tilning milliy-mental xususiyatlarining lingvokognitiv mexanizmlari va uni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar taraqqiyoti hamda bugungi holatini o'rganish asosida tadqiqotlar olib borish zarurati mavzuning muhim ahamiyatini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.168-174.

tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Konsept bo'yicha bir qator jahon tilshunoslari tomonidan ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.F.Alefirenko, Y.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, A.P.Babushkin, N.N.Boldirev, A.Vejbiskaya, V.V.Vinogradov, S.G.Vorkachev, V.G.Gak, A.A.Zalevskaya, T.A.Kildibekova, Y.N.Karaulov, N.A.Krasavskiy, Y.S.Kubryakova, I.A.Sternin, Z.D.Popova, V.N.Teliya, V.M.Toporova, Y.V.Urison ² kabi tilshunoslarning bu borada olib borgan tadqiqotlarida konsept va uning muhim xususiyatlari turlicha talqin etilgan. Konsept termini kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa kabi bir qator fanlarda qo'llanildi. Bu esa uning universal tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Unga turli fan tarmoqlari nuqtayi nazardan yondashish konsept terminiga turlicha ta'rif berilishiga sabab bo'lgan.

O'zbek tilshunosligida "konsept" atamasini o'rganish 1990-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib, Sh.Safarov, O.Yusupov, D.Ashurova, N.Mahmudov, E.Mamatov, M.Rahmatova, D.Xudoyberganova, B.Mengliyev, T.Mardiyev, G'.Hoshimov, M.Axunov, N.Umarova, Z.Akbarova³ kabi tilshunos olimlarning

²Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Наука, 2010; Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // ВЯ, 1995. – №1. – С.38-42; Арутюнова Н.Д. Аномалии и язык (к проблеме языковой «картины мира») // ВЯ, 1987. – №3. – С.61-68; Бабушкин А.П. Квантитативные выражения с позиции когнитивной лингвистики // Язык и национальное сознание. – Воронеж, 1998; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. – Тамбов, 2000; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.,1996; Виноградов В.В. Некоторые задачи изучения синтаксиса простого предложения // ВЯ, 1954. – №1. – С.23-29; Воркачев С.Г. Национально-культурная специфика концепта любви в русской и испанской паремиологии // ФН, 1995. – №3. – С.43-49; Гак В.Г. Высказывание и ситуация // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1973; Залевская А.А. Когнитивизм, когнитивная психология, когнитивная наука и когнитивная лингвистика // Когнитивная лингвистика. Современное состояние и перспективы развития. – Тамбов, 1998; Кильдибекова Т.А., Гафарова Г.В. Функционально-когнитивный словарь русского языка. – Уфа, 1997; Караулов Ю.Н. Семантический гештальт ассоциативного поля и образы сознания //Языковой сознание. Содержание и функционирование. – М., 2000; Красавский Н.А. Лингвистические методы исследования эмоциональной концептосфер // Лингвистические парадигмы: традиции и новации. – Волгоград, 2000; Кубрякова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения. – М., 1997; Стернин И.А. Концепт и языковая семантика // Связи языковых единиц в системе и реализации. Когнитивный аспект. – Вып. 2. – Тамбов, 1999; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996; Токарев Г.В. Афоризмы, репрезентирующие концепт «труд», в культурно-когнитивном освещении // Актуальные проблемы изучения и преподавания русского языка на рубеже XX-XXI веков. – Воронеж, 2001; Топорова В.М. Концепт «форма» в семантическом пространстве языка (на материале русского и немецкого языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2000; Убийко В.И. Концептосфера внутреннего мира человека в динамической модели языка // Язык и национальное сознание. – Вып. 2. – Воронеж, 1999; Урысон Е.В. Языковая картина мира vs обиходные представления (модель восприятия в русском языке) // ВЯ, 1998. – №2. – С.71-77.

³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006; Юсупов Ў.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида.

ishlarida konsept atamasiga e'tibor qaratila boshlandi va ilmiy maqolalar e'lon qilinib, tadqiqotlar olib borildi, ilmiy adabiyotlar yaratildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Farg'ona davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy tilshunoslik muammolari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "boylik" konseptining lingvomadaniy xususiyatlari, ularning nutqiy jarayonda qo'llanilishi hamda unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"boylik" konseptini ifodalovchi leksik-semantik, paremiologik vositalar va ularning mental tavsifi hamda tuzilishini aniqlash;

dunyo tilshunosligida konseptning mohiyati, talqini bo'yicha mavjud nazariy qarashlarni tahlil qilish hamda kognitiv paradigmaning tilshunoslikka tatbiq etilishiga oid qarashlarni tavsiflash va tasniflash;

olamning konseptual va lisoniy manzarasini o'rganish asosida "boylik" konseptining lingvokognitiv jarayondagi o'rni belgilash;

"boylik" konsepti va uning moddiy, ma'naviy, madaniy talqinlarini ochib berish, shu asosida "boylik" konseptining lingvomadaniy strukturasi aniqlash;

"boylik" konseptini ifodalovchi paremik birliklarning lingvomadaniy belgilarini aniqlash hamda o'zbek milliy madaniyatida "boylik" konseptining mazmuniy strukturasi yoritib berish;

"boylik" konseptining assotsiativ maydonini aniqlash asosida til egalarining milliy-mental qadriyatlar mundarijasini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini o'zbek, rus, ingliz tillarida "boylik" konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettirgan leksema, frazema va paremalardan iborat.

Tadqiqotning predmetini "boylik" konseptini ifodalovchi leksik birliklar hamda paremalarning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, sotsiologik tahlil, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

olamning konseptual va lisoniy manzarasi doirasida "boylik" konseptining tahlil qilinganligi, uni inson tafakkurida shakllangan voqelik haqidagi tizimli bilimlar asosida g'oyaviy, hissiy, assotsiativ va madaniy jihatdan namoyon bo'lganligi, shuningdek, bu konseptning til vositasida inson tomonidan tasavvur qilinishi, nomlanishi va tushunilishi bilan bog'liq konseptual modelda ifoda

– Тошкент: ЎзДЖТУ, 2011. – Б. 98-105; Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане // Хорижий филология: Тил, таълим, адабиёт, 2016. – № 3. – Б. 57-62; Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019; Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида «гўзаллик» концептининг лисоний хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Бухоро, 2019; Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015; Менглиев Б.Р, Холманова З.Т. Тилшunoslik назарияси ва методологияси. – Тошкент, 2016; Мардиев Т. «Бахт» концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қисқача) // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. Илмий ахборотнома журнали. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016. – №10. – Б.36-44; Хошимов Ф.М., Комилова Н.А. Инглиз ва ўзбек тилларида гендер концептуал семантикаси вербализаторлари номинатив турларининг лингвокультурологик хусусиятлари // Сўз санъати халқаро журнали, 2021. – № 6. – Б.78-84; Ахунов М.М. Оламнинг лисоний манзарасида «Жиноят» концептининг ўрни: Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. автореф. – Андижон, 2022; Умарова Н.Р. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан.д-ри. ...дисс. – Фарғона, 2021; Акбарова З. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2021.

topganligi, mazkur model orqali esa “boylik” haqidagi milliy tafakkur va lingvomadaniy tajribaning leksemalar, paremik birliklar orqali ifodalanganligi isbotlangan;

“boylik” konseptini ifodalovchi paremik birliklar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning turli lingvomadaniy muhitda namoyon bo‘luvchi *oltin, kumush, brilliant, olmos, zumrad* kabi moddiy hamda *bilim, oila, oilaviy rishtalar, do‘stlik, baxt, muhabbat* kabi semalari aniqlangan;

“boylik” konseptining leksik, paremik birliklar orqali ifodalanishi xalqning tarixiy tajribasi, arxeologik obidalar, yozma manbalar, xalq qo‘shiqlari kabi madaniy qadriyatlar va yoshi ulug‘larga munosabat, mehmondo‘stlik kabi ijtimoiy me‘yorlar asosida turli tizimli tillar misolida dalillangan;

“boylik” konseptining assosiativ maydoni aniqlangan hamda turli tizimli til egalariga xos bo‘lgan “boylik” konseptining moddiy, ma‘naviy, axloqiy, estetik, etik, tarixiy, etimologik jihatlari asosida til egalarining ijtimoiy adolat, mehnatsevarlik, o‘zaro hurmat, vatanparvarlik, sabr-qanoat, xayriya, saxovatpeshalik kabi milliy-mental qadriyatlar mundarijasi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konsept hamda kognitivlik tushunchalarining tilshunoslikdagi ilmiy-nazariy asoslari o‘rganilgan hamda “boylik” konseptiga oid nazariy qarashlar umumlashtirilgan va tasniflangan;

konsept va geshtaltning shakllanishida mantiqiy, mental strukturalarning o‘rni aniqlangan hamda lisoniy ifodalanish mexanizmlari ochib berilgan;

chiqarilgan xulosalar umumiy tilshunoslik, xususan, lingvokulturologiya, lingvopragmatika sohalari uchun muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berish, tilshunoslik nazariyasi, chog‘ishtirma tilshunoslik kabi sohalarda bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublikamiz hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalar tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, umumlashtirish, kontekstual tahlil usullari orqali dalillanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, “boylik” konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganib, madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yoritadi. Turli xalqlarda “boylik” konsepti qaysi til birliklari orqali ifodalanishi va bu konseptning madaniyatga bog‘liq ravishda qanday o‘zgarishi ilmiy jihatdan muhimdir. Bu kabi tadqiqotlar konseptual tahlil usullarini rivojlantiradi, lingvistik birliklarning semantik va pragmatik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi. “Boylik” konseptini ifodalovchi leksik va frazeologik birliklarning milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyatlar, tarixiy hamda madaniy omillar bilan bog‘liqligi ushbu konseptning lingvomadaniy xususiyatlariga oid ilmiy qarashlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “boylik” kabi tushunchalarni boshqa tillarga tarjima qilishda lingvomadaniy tafovutlarni hisobga olishga yordam beradi, bu esa tarjimaning yanada aniq va mazmunli bo‘lishini ta‘minlaydi; lisoniy va madaniy kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturlarini yaratishda foydalanilishi mumkin; “boylik” kabi murakkab konseptlar turli madaniyatlar orasidagi muloqotni yanada samarali qilishga yordam beradi. Shu tariqa, madaniy farqlarni to‘g‘ri tushunishga, stereotiplardan voz kechishga hamda to‘g‘ri muloqot strategiyalarini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixologiya, tarjimashunoslik

sohalarida muhim va amaliy jihatdan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada erishilgan natijalar asosida:

“boylik” konseptining assosiativ maydoni aniqlangan hamda turli tizimli til egalariga xos bo‘lgan “boylik” konseptining moddiy, ma’naviy, axloqiy, estetik, etik, tarixiy, etimologik jihatlari asosida til egalarining ijtimoiy adolat, mehnatsevarlik, o‘zaro hurmat, vatanparvarlik, sabr-qanoat kabi milliy-mental qadriyatlar mundarijasi aniqlanganligiga oid ilmiy natija va xulosalardan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tomonidan olib borilgan “Musiq va san‘at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi (2021-2023) F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan. (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 2024-yil 27-dekabrda 1/04-158-son ma‘lumotnomasi). Natijada yaratilgan lug‘at o‘zbek, rus hamda ingliz milliy madaniyatiga xos bo‘lgan leksemalar, frazemalar va paremalarning qiyosiy tahliliga oid nazariy xulosalar, qiyosiy tahlillar asosida takomillashtirilgan va boyitilgan;

“boylik” konseptining leksik, paremik va frazeologik birliklar orqali ifodalanishi xalqning tarixiy tajribasi, arxeologik obidalar, yozma manbalar, xalq qo‘shiqlari kabi madaniy qadriyatlar va yoshi ulug‘larga munosabat, mehmondo‘stlik kabi ijtimoiy me‘yorlar asosida turli tizimli tillar misolida dalillanganligiga oid natija va xulosalardan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbek milliy raqs san‘atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb (elektron lug‘atlar) to‘plami yaratish” mavzusidagi F3-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek folklor san‘ati terminlarining qisqacha o‘zbekcha-inglizcha-nemischa izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan. (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 27-dekabrda №1/04-159-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek folklori san‘atiga xos terminlarni tarjimada berish, leksema, frazema hamda paremalarni izohlash, tavsiflash va tasniflash jihatdan mukammallashdi;

“boylik” konseptini ifodalovchi paremik birliklar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning turli lingvomadaniy muhitda namoyon bo‘luvchi *oltin, kumush, brilliant, olmos, zumrad* kabi moddiy hamda *bilim, oila, oilaviy rishtalar, do‘stlik, baxt, muhabbat* kabi semalari aniqlanganligiga oid xulosalardan “O‘zbekiston Teleradiokanali” davlat muassasasi “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat” eshittirishlarining ssenariysini yozishda (2022-2025) foydalanilgan. (“O‘zbekiston Teleradiokanali” davlat muassasasi 2024-yil 27-dekabrda №26-36-932-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallar mazmunan chuqurlashgan, ilmiy dalillar bilan boyitilgan hamda eshittirishlarda ko‘tarilgan masalalarning ilmiy asosi kuchaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon qilingan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Ushbu tadqiqot ishi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 142 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Konsept tadqiqining nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida konsept tushunchasining lisoniy, falsafiy va mantiqiy talqinlari hamda nazariy masalalari o'rganilgan. Shuningdek, uning zamonaviy tilshunoslikdagi talqinlari, kognitiv paradigmaning tilshunoslikka tatbiq etilishi va olamning konseptual hamda lisoniy manzarasi muammolari yoritilgan.

Bobning birinchi fasli *“Konseptning zamonaviy tilshunoslikdagi talqinlari”* deb nomlangan bo'lib, bu faslda konsept borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlilga tortilgan hamda ularning umumiy hamda farqli jihatlari ochib berilgan.

Konsept tushunchasini rus tilshunosligiga 1928-yilda diniy faylasuf S.A.Askoldov-Alekseyev olib kirgan. U konseptni so'z bilan bog'lab, uni kognitiv va badiiy turlarga ajratadi. Askoldov-Alekseyev, ayniqsa, kognitiv konseptni muhim deb hisoblab, konseptning o'rinbosarlik xususiyatiga ham e'tibor qaratadi⁴.

Konsept termin sifatida kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa kabi bir qator fanlarda qo'llaniladi. Bu esa uning universal tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Konsept terminiga yondashish uning turlicha talqin etilishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun unga tilshunoslik, tarjima va izohli lug'atlarda quyidagicha ta'rif berilgan: “Konsept tushunchaning mazmuni, fikr, tasavvur”⁵; “1. Tushunchaning semantik mazmuni, denotat. 2.Kognitiv tilshunoslikda mental leksikon, konseptual sistemaning xotira birligi va miya tili”⁶; “umumiy tushuncha yoki fikr”⁷; “o'y, fikr, tushuncha”⁸; “falsafiy fikr”⁹; “biror-narsaga bog'langan fikr yoki tamoyil”¹⁰; “mavjud bo'lgan fikr”¹¹; “inson ongida shakllanadigan umumlashtirilgan ma'no bo'lib, u til birliklari orqali ifodalanadi. Konseptlar tafakkur jarayonida shakllanadi va ular tilni egallash hamda muloqotga kirishishda asosiy rol o'ynaydi”¹² kabi. Falsafaga oid lug'atlarda esa konsept termini “1) ta'rif, aqliy obraz, umumiy fikr, tushuncha; 2) logik semantikada nomning mazmuni kabi ma'nolarni anglatadi”¹³; “predikat ma'nosi bilan mos keladigan mavhum narsa yoki mental borliq (odatda “fikr” deb ham yuritiladi)dir. Mantiq nuqtayi nazaridan konseptlar fikrdan ko'ra predikatlarning

⁴ Аскольдов С.А. Концепт и слово. – М.: Академия, 1997.– С.67-69.

⁵ Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. – М.: Наука, 2003. – С.91.

⁶ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010.– С.165.

⁷ Carol G. Braham. Random house Webster's Dictionary. – New York, 2001. – P.146.

⁸ NTC's Super-Mini English Dictionary. – USA, 2002. – P.47.

⁹ Easier English Student Dictionary. – London, 2003. – P.169.

¹⁰ Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. – New York: Oxford University Press, 2005. – P.313.

¹¹ Macmillan English Dictionary for advanced learners. – Malaysia, 2012. – P.302.

¹² Longman Dictionary of Language teaching and applied linguistics. – London, 2013. – P.112-113.

¹³ Философия луғати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1976. – Б.241.

referenti (ya'ni fikr, ramz yoki belgiga taalluqli) hisoblanadi"¹⁴ va bu bilan konseptning borliqdagi narsa-hodisa bilan bog'liq tomoniga e'tibor qaratiladi. Bunda konseptning ramz, belgiga xosligi ta'kidlanadi. Chunki konseptda til egasining nuqtayi nazari ifoda etilishi bilan birga, unda mental xususiyatlar ham aks etadi. Undagi umumlashtirish esa konseptni ramzga, belgiga yaqinlashtiradi. Biroq hech qachon konsept belgi yoki ramz bilan aynan bo'lmaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan konsept – bu milliy, mental xususiyatlar, til egasining hayotiy tajribasi, bilim darajasi va dunyoqarash bilan to'yingan tushunchadir; “konsept, tildan foydalanishga aloqador bo'lgan olam manzarasini in'ikos etish bosqichida turuvchi, voqea-hodisalarni hamda obyektlarni umumlashtiruvchi shakllardan biridir”¹⁵ deb izohlansa, mantiq fanida “konsept lotin tilidan “tushuncha” tarzida tarjima qilinib, tushunchalar majmuyi, mazmun kabi ma'nolarni beradi”¹⁶ deb ta'riflanadi. Bu ta'rifda konsept tushunchalar majmuyi sifatida izohlanar ekan, uning umumlashtiruvchi belgisiga e'tibor qaratiladi. Y.S.Stepanov¹⁷ esa *konsept* va *tushuncha* so'zlarini sinonim deb hisoblaydi. Biroq u bu atamalar turli sohalarda qo'llanishini, *tushuncha*, asosan, mantiq va falsafada, *konsept* esa dastlab matematika keyinchalik esa lingvokulturologiya sohalarida ishlatila boshlaganini ta'kidlaydi. V.Z.Demyankov¹⁸ *konsept* va *tushuncha* tarixan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, hozirgi vaqtda ular ilmiy va amaliy jihatdan farqlanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, *konsept* – bu so'zning mazmuniy tomoni, *tushuncha* esa voqelikni ifodalaydi. Har ikkisi insonning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy hayotida muhim omil sifatida shakllanadi va rivojlanadi, deb izohlaydi. A.Solomonik¹⁹ *konseptni* mavhum ilmiy tushuncha sifatida ta'rifladi, V.V.Kolesov²⁰ *konseptni* mazmundor xarakterga ega bo'lgan obraz, tushuncha va ramz orqali ifodalanadigan adabiy tushuncha sifatida izohlaydi va adabiyot terminlari sirasiga kiritadi.

O'zbek tilshunosligida *konseptning* o'rganilishi 1990-yillardan boshlandi. Jumladan, bu borada tadqiqot olib borgan M.Rahmatovanning²¹ fikricha, *konsept* inson faoliyati jarayonida to'plangan bilim ongda aks etadi va bu mental ifodalanishi milliy-madaniy faoliyatning ifodasidir. T.Mardiyev²² konseptlar inson turmush tarzi va madaniyati bilan bog'liq bo'lib, ularni lisoniy va madaniy qoliplarda shakllantirish zarur. Har bir konsept har xil lingvomadaniyatlarda o'ziga xos tarzda shakllanadi va murakkab tuzilishga ega bo'ladi, deb qaraydi. Keyingi yillarda olib borilgan bir qator tadqiqotlarda ham konseptning yuqorida berilgan ta'riflaridan biriga tayaniladi.

Demak, *konsept* – bu inson ongida tajriba va bilimlar asosida shakllangan mavhum tushunchalar majmuyi bo'lib, falsafa, mantiq, lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik va tilshunoslik kabi sohalarda turlicha talqin qilinadi. Barcha

¹⁴ Dictionary of Philosophical Logic. – UK: Edinburgh University Press, 2009. – P.56.

¹⁵ Frolov I. A Dictionary of Philosophy. – M., 1985. – P.78.

¹⁶ Горский Д.П., Ивин А.А., Никифоров А.Л. Краткий словарь по логике. – М.: Просвещение, 1991. – С.80.

¹⁷ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа Языка русской культуры, 1997. – С.40-76.

¹⁸ Демьянков В.З. Термин «концепт» как элемент терминологической культуры // Язык как материя смысла: Сборник статей в честь академика Н.Ю.Шведовой. – М.: Азбуковник, 2007. – С.606-622.

¹⁹ Соломоник А. Семиотика и лингвистика. – М.: Молодая гвардия, 1995. – С.246.

²⁰ Колесов В.В. Язык и ментальность. – СПб., 2004. – С.19-20.

²¹ Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида «гўзаллик» концептининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – Б.13.

²² Мардиев Т. «Бахт» концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. Илмий ахборотнома журнали. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016. – № 10. – Б.36-44.

ta'riflarni umumlashtirganda, *konsept* tasavvur, xotira va ong birligida shakllanadigan, milliy va mental tajriba hamda bilimlar bilan boyitilgan, to'yingan tushunchadir.

Bobning ikkinchi fasli "*Kognitiv paradigmaning tilshunoslikka tatbiq etilishi*" deb nomlanadi. Bu faslda kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi haqida so'z yuritiladi.

Kognitivlikni ayrim tilshunoslar tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida e'tirof etsa, boshqalar antropotsentrik paradigma doirasida izohlaydilar. Shuning uchun ham mavjud manbalarda bu tushuncha turlicha tavsif va talqin qilinadi, ya'ni kognitivlik – bu "tushunish bilan bog'liq bo'lgan jarayon"²³; "tushunishning mental jarayoni"²⁴; "psixologiya sohasida keng qo'llanadigan hamda narsa-buyumlar, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tanish va tushunish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi"²⁵; "fikrlash, eslab qolish, idrok etish, tanish, tasniflash kabi turli xil mental jarayonlarni o'z ichiga oladi"²⁶; "fikrlash, eslab qolish, anglash kabi jarayonlarni o'z tarkibiga oladigan mental jarayon sifatida qaraladi"²⁷; "ongli intellektual faoliyat bo'lib, o'z ichiga fikrlash, eslash, anglash yoki tildan foydalanish kabi jarayonlarni oladi"²⁸; "bilish, o'rganish va tushunishni o'z ichiga oluvchi mental jarayondir"²⁹.

A.Vejbitskaya, N.Arutyunova, A.Babushkin, N.Krasavskiy va V.Neroznak kabi tilshunoslar kognitivlikning eng muhim mental birligi bo'lgan konseptga e'tibor qaratadilar va konseptlarning ifodalanishi bevosita verbal vositalar bilan bog'liq. Konseptlar tilda leksema, frazema, parema, metafora va tasviriy ifodalar orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli ularni o'rganishda freym tahlili, kognitiv metafora va kognitiv xarita metodlari keng qo'llanadi³⁰, deb qaraydilar.

V.Maslova³¹ kognitiv jarayonlarni bilim va ma'lumotlar bilan bog'liq jarayonlar deb ta'riflab, *kognitivlik* termini o'rnida "aqliy" va "mental" so'zlari ham ishlatilishini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kognitivlik – bu ongli, intellektual, mental jarayon, faoliyat bo'lib, o'z ichiga tushunish, anglash, fikrlash, eslab qolish, tasniflash, idrok etish, voqea-hodisalarni tanish va hattoki tildan foydalanish kabi turli xil jarayonlar majmuyi hisoblanadi va u lisoniy birliklar asosida yuzaga chiqadi.

Kognitivlik umumiy bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgani sababli u faylasuflarning ham e'tiborini tortgan bo'lib, ular bu tushunchaning falsafiy jihatiga e'tibor qaratadilar hamda falsafiy lug'atlarda quyidagicha ta'riflar keltiriladi: *kognitivlik*ni tushunish, fikrlarni shakllantirish va bilimlarni egallash bilan bog'liq aqliy jarayon hamda uni xohish yoki niyat qilish kabi ixtiyoriy jarayonlardan ajratib ko'rsatadi³²; kognitivlik hodisalarni bilish imkoniyati va ilmiy axborotlar bilan bog'liq konsepsiya sifatida talqin etiladi³³.

²³ Easier English Student Dictionary. – London. 2003. – P.147.

²⁴ Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. – New York: Oxford University Press, 2005. – P.288.

²⁵ Macmillan English Dictionary for advanced learners. – Malaysia, 2012. – P.278.

²⁶ Longman Dictionary of Language teaching and applied linguistics. – London, 2013. – P.90.

²⁷ Merriam-Webster's Advanced Learner's English Dictionary. – USA, 2008. – P.354.

²⁸ Merriam-Webster Dictionary. – USA, 2017. – P.139.

²⁹ Collins Cobuild Advanced Learner's Dictionary. – London, 2018. – P.1812-1813.

³⁰ (Bu haqda qarang) Аъзамова Г.С. Адекватлик ва эквивалентликнинг лингвокогнитив aspektlari: Филол. фан. номз. ...дисс. – Фарғона, 2022. – Б.100.

³¹ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004. – С.7.

³² Antony Flew. A Dictionary of Philosophy. – Oxford, 1979. – P.61.

³³ Фалсафа комусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.198.

Demak, *kognitivlik* – bu shunchaki bilish emas, balki insonni o‘rab turgan narsa-buyumlar va sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni chuqur anglash, tahlil qilish va ularga fikr bera olish jarayonidir. Aynan shu aqliy jarayon natijasida inson ongida konseptlar shakllanadi. Konseptlar esa xalqning turmush tarzi va tafakkuriga xos jihatlarni ifodalovchi, madaniyatni anglash va talqin etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladigan murakkab mental birliklardir. Shu sababli kognitiv yondashuv va konseptlarni o‘rganish bugungi tilshunoslik va lingvokulturologiyaning dolzarb ilmiy masalalaridan biri sanaladi.

Bobning uchinchi fasli “*Olamning konseptual va lisoniy manzarasi*” deb nomlanib, unda olamning lisoniy manzarasi insonning dunyoni til orqali idrok etishi va tasvirlash usuli hamda milliy tafakkur va madaniyatning til vositasida aks etgan ifodasi sifatida yoritiladi.

R.Ladoning³⁴ fikriga ko‘ra, olamning lisoniy manzarasi inson ongida voqelikning til orqali aks etgan tasviri bo‘lib, tasavvurlar tizimining yaxlit bilimini ifodalaydi. U olamning konseptual yoki kognitiv modelidan farq qiladi va insonning olam haqidagi bilimlarini til vositasida voqelantirish hamda verbal konseptuallashtirishga xizmat qiladi.

V.A.Maslova³⁵ “olamning lisoniy manzarasi” atamasini metafora sifatida talqin qiladi va uni xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasini aks ettiruvchi til faoliyatining mahsuli deb hisoblaydi. Biroq bu fikrga to‘liq qo‘shilish mushkul, chunki olamning lisoniy manzarasi faqat metaforalar bilan cheklanmaydi, balki til orqali dunyoni idrok etish va aks ettirish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Olam tilda nominatsiya, kontaminatsiya, sintagmatika kabi hodisalar orqali keng qamrovli tarzda namoyon bo‘ladi.

R.I.Pavilyonis³⁶ konseptual tizimni insonning dunyoni o‘zlashtirish jarayonida shakllanadigan va xalqning milliy-ma’naviy faoliyatini aks ettiruvchi tizim sifatida talqin qiladi, uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan konsept esa voqelikning muayyan qismini ifodalovchi kognitiv tuzilma hisoblanadi. Shu bilan birga, S.I.Drachyova³⁷ turli tillardagi konseptual tizimlar mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lishini atrof-muhitni anglash usullarining umumiyligi bilan izohlaydi, ammo konseptlarning milliy o‘ziga xosligi periferik qismlar va madaniy komponentlarda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Demak, konseptlarni tillararo taqqoslash orqali madaniyatlararo umumiylik va har bir xalq tafakkuriga xos o‘ziga xosliklarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, borliqni idrok etish jarayoni ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning milliy-madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu olamning lisoniy manzaralarida namoyon bo‘ladigan tafovutlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Etnologiya, lingvokulturologiya va boshqa yondosh fanlar nuqtayi nazaridan bu farqlarning ildizlarini aniqlash tilshunoslik doirasidan chiqib, xalqlarning olam haqidagi bilimlari va dunyoqarashlarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Bunda lisoniy tafovutlarning uch asosiy omili: tabiat, madaniyat va bilish jarayonlari ajratib ko‘rsatiladi.

Birinchi omil sifatida tabiat insonlarning lisoniy ongiga va ularning dunyoni

³⁴Ладю Р. Лингвистика поверх граничных культур // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. XXV: Контрастивная лингвистика. – М., 1989. – С.34-51.

³⁵Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004. – С.255.

³⁶Павильонис Р.И. Понимание речи и философия языка // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. НУ II. – М.: Прогресс, 1986. – С.286.

³⁷Драчёва С.И. Экспериментальное исследование вербального содержания этнической концептуальной системы // Текст: структура и функционирование. – Вып. 2. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 1997. – С.60-64.

idrok etish usullariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois turli madaniyatlarda ranglar, hayvonlar, joy nomlari va tabiat hodisalari turlicha talqin qilinadi hamda bu holat tillarda o'zining metaforik, assotsiativ va konnotativ ifodasini topadi.

Ikkinchi omil sifatida madaniyat til va tafakkurda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u inson tomonidan yaratilgan va ijtimoiy-tarixiy tajribani aks ettiradi. Milliy marosimlar, urf-odatlar, folklor va mifologik tasavvurlar til orqali konseptuallashtiriladi va turli xalqlarning lingvistik manzarasida o'z aksini topadi. Shu bois madaniyatga xos bo'lgan konseptlar ko'plab xalqlarga tarqalib, global muloqot jarayonida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Uchinchi omil – bilish jarayoni bo'lib, u dunyoni anglash va in'ikos qilishning aqliy, hissiy va ma'naviy usullarini o'z ichiga oladi. Har bir xalqning tilida bu bilish jarayoni o'ziga xos tarzda aks etadi va bu holat turli xalqlarning kognitiv faoliyati hamda lisoniy ongida namoyon bo'ladi. V. fon Gumboldtning³⁸ “narsalarni ko'rishning turli usullari” haqidagi g'oyasi ham ana shu jarayonning milliy tafakkur va til farqlaridagi o'ziga xosligini tasdiqlaydi.

Xullas, olamning lisoniy va konseptual manzarasi xalqning tabiiy sharoitlari, madaniyati va bilish usullari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir millat dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etadi va bu jarayon til orqali aks etib, milliy tafakkur va madaniyatni namoyon qiladi. Shu bois turli tillarda olam tasvirining o'ziga xosligi xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va kognitiv faoliyati natijasi sifatida shakllanadi.

Ikkinchi bob **“Boylik” konseptining verbalizatorlari**” deb nomlangan bo'lib, unda “boylik” konseptining mazmun-mohiyati, uning turli madaniy va til tizimlarida qanday talqin qilinishi yoritilgan. Shuningdek, konseptning lingvomadaniy va leksik-semantik strukturalari tahlil qilingan hamda uning xalq ongida shakllangan tasavvurlari va ularni ifodalovchi til vositalari o'rganilgan.

Mazkur bobning birinchi fasli *“Boylik” konsepti va uning talqinlari*” deb nomlangan. “Boylik” konsepti zamonaviy tilshunoslikda keng o'rganilayotgan muhim lingvomadaniy konseptlardan biridir. Uning lug'aviy ma'nosi o'zbek, rus va ingliz tillariga oid izohli hamda iqtisodiy lug'atlarda turlicha ta'riflanadi: 1. Boy bo'lishlik, boy mavqe; mol-mulkning yig'indisi, majmuyi; mo'llik. 2. Dunyo, davlat, mol-mulk. 3. Tabiiy, moddiy resurslar majmuyi. 4. Aqliy, ruhiy, ma'naviy faoliyat hosilasi, majmuyi³⁹; katta miqdordagi pul, qimmatbaho buyumlar va mol-mulkka egalik qilish⁴⁰; har qanday qiymatga ega bo'lgan narsalarga egalik qilish⁴¹; ko'p miqdordagi qimmatbaho moddiy resurslar va farovonlik holati⁴²; pul va mol-mulk ko'pligi, qiymatga ega bo'lgan barcha narsalar hamda qimmatbaho buyumlar⁴³; shaxs, firma yoki mamlakatga tegishli mol-mulk zaxirasi bo'lib, u ma'lum bir sanada baholanadi va daromad shakllarining asosiy manbayi hisoblanadi⁴⁴; jismoniy shaxs, firma yoki mamlakatga tegishli va daromad olish uchun ishlatiladigan aktivlar hamda inson kapitali⁴⁵ kabi. Bu ta'riflarni umumlashtirganda, “boylik” bu moddiy va nomoddiy qadriyatlar yig'indisi bo'lib,

³⁸Гумбольдт В. О различии построения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С.156-180.

³⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Б» ҳарфи. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – Б.303.

⁴⁰ Ефремова Т.Ф. Современный толковый словарь русского языка: в 3 т. – М.: АСТ, 2006. – С.622.

⁴¹ Chambers's Twentieth Century Dictionary of the English language. – Edinburgh, 1903. – P.1117.

⁴² Houghton Mifflin Harcourt. American Heritage Dictionary of the English Language. – USA, 1961. – P.8016.

⁴³ Carol G. Braham. Random house Webster's Dictionary. – New York, 2001. – P.811.

⁴⁴ Routledge Dictionary of Economics. – London, 2002. – P.620.

⁴⁵ Dictionary of Economics. – Great Britain, 2003. – P.215.

u iqtisodiy qiymatga ega va farovonlikni ta'minlovchi asosiy resursdir.

“Boylik” konsepti bo'yicha turli yondashuvlarda tadqiqotlar olib borilgan. N.Makeyeva⁴⁶ “boylik” konseptini ispan va rus tillarida qiyoslab tahlil qilgan bo'lsa, E.Uchaykina⁴⁷ qadimgi ingliz davrida “boylik” tushunchasining ifodasini o'rgangan, S.Kusiy⁴⁸ “boylik” konseptiga oid iboralar va paremiologik birliklarga e'tibor qaratgan, Y.Steshina⁴⁹ esa rus va ingliz yoshlarining ongidagi “boylik” konseptini psixolingvistik tajribalar asosida o'rganib chiqqan, Y.Klementeva⁵⁰ ushbu konseptni kognitiv jihatdan chuqur tahlil qilgan. G.Ijbayeva va A.Mirzagaliyeva⁵¹ “boylik” konseptini rus maqollari asosida tahlil qilib, uni “baxt o'lchovi” sifatida talqin qilganlar. Ular rus madaniyatida boylik tushunchasining xalq ongida qanday aks etishini ko'rsatib bergan. Y.Gracheva⁵² o'z tadqiqotida “boylik” konseptining rus, ingliz tillaridagi maqol va matallar orqali ifodalanishiga e'tibor qaratadi. Muallif ushbu konseptni lingvomadaniy va madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilib, xalqlarning boylikka bo'lgan munosabatini ochib beradi. X.Xolmatova⁵³ o'z maqolasida “boylik” va “qashshoqlik” konseptlarini tojik, rus va ingliz tillarida paremiologik birliklar orqali taqqoslab tahlil qilgan. Muallif ushbu qarama-qarshi tushunchalarning har uch tilda qanday aks etishini misollar asosida ko'rsatgan. S.Safonova⁵⁴ “boylik” konseptini badiiy konsept sifatida tahlil qilib, asar qahramonlari orqali boylikka bo'lgan ijobiy va salbiy munosabatlarni yoritadi hamda rus madaniyatida ushbu konseptning o'rini ko'rsatadi.

Olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, “boylik” konsepti turli xalqlarning madaniyati va qadriyatlari bilan bog'liq holda turlicha talqin qilinadi. Bu esa o'sha xalq tilida o'z aksini topadi. Konsept har bir xalq qadriyatlaridan kelib chiqib, ma'lum bir ma'no kasb etadi. Ularning ma'no strukturasi xalqning mental xususiyati va qadriyatlariga borib taqaladi hamda shu bilan bog'liq holda moddiy, ma'naviy, ijobiy yoki salbiy semaga ega bo'ladi. Shuning uchun tadqiqotchilar tomonidan “boylik” konsepti lingvomadaniy, psixolingvistik va badiiy nuqtayi nazardan o'rganilib, “boylik” va “qashshoqlik”ning o'zaro munosabati ham ochib beriladi.

“Boylik” konsepti o'zbek madaniyatida nafaqat moddiy ne'matlar, balki ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. U oilaviy ahillik, madaniy meros va ruhiy farovonlik orqali namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida maqol va matallarda o'z aksini topadi. Masalan, *Moli borning holi bor; Molsiz kishi – jonsiz kishi* (o'zbek xalq maqollari). Boylik – mehmondo'stlik va saxovatpeshalik sifatida. Masalan, *Boyga mehmon bo'lsang, baqirasan, kambag'alga mehmon*

⁴⁶ Makeyeva N. Концепт «богатство» в русском языковом сознании (на фоне испанского языка): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2009.

⁴⁷ Учайкина Е.Н. Концептосфера «богатство» в англосаксонской картине мира: концептуализация и категоризация: тема: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Владивосток, 2005.

⁴⁸ Куцкий С.Б. Лингвокультурная специфика концептов «богатство» и «бедность»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ставрополь, 2003.

⁴⁹ Стешина Е.Г. Концепты богатство и бедность в молодежном языковом сознании русских и англичан: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Саратов, 2003.

⁵⁰ Клементьева Е.В. Концепт «богатство»: когнитивно-прагматический аспект: на материале русского и английского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2008. – С.201.

⁵¹ Ижбаева Г.Р., Мырзагалиева А.С. Концепт «богатство» в паремиологических единицах русского языка // Вестник Волжского университета имени В.Н.Татищева, 2018. – № 2. – Том 2. – С.74–81.

⁵² Грачева Е.А. Анализ концепта «богатство» на материале русскоязычных и англоязычных пословиц и поговорок // Язык и текст, 2017. – Том 4. – № 3. – С.129–138.

⁵³ Холматова Х.А. О паремиологии концепта «богатство» и «бедность» в таджикском, русском и английском языках // ТерГУ, 2001. – № 90. – С.267–274.

⁵⁴ Сафонова С.Г. Концепт «богатство» в художественной картине повести Ф.М.Достоевского «Дядюшкин сон». – Казань, 2015. – С.228.

bo'lsang, kekirasan (o'zbek xalq maqoli).

“Boylik” konseptining tuzilishida ma'lum bir xalqning diniy qadriyatlari ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, islomda “boylik” tushunchasiga ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni hisobga olib qaraladi. Bunda u Allohning ne'mati sifatida baraka va farovonlik asosi bo'lgani holda, uni faqat ezgu maqsadlarda sarflash, kambag'al va miskinlarga yordam berish, xayriya, oila va jamoaning moddiy ehtiyojlariga sarflash semalari konseptning yadrosini tashkil etadi. Shuning uchun uning tildagi ifodasida boylik – adolatli daromad, zakot (majburiy ehson), pok luqma sifatida tavsiflanadi. Bu tavsif xalqning milliy-mental xarakteridan kelib chiqadi va uni oqilona sarflash, tejamkorlik, isrof qilmaslik semalarini ham o'zida jamlaydi.

Xullas, “boylik” konsepti o'zbek madaniyatida nafaqat moddiy, balki ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqdir. Boylik oilaviy rishtalar, madaniy meros, ilm-hikmat, san'at va adolat tamoyillari orqali ifodalanadi. Boylik halol yo'llar bilan topilishi, oqilona sarflanishi va jamiyatning farovonligiga hissa qo'shishi kerakligi ta'kidlanadi.

Mazkur bobning “*Boylik*” konseptining lingvomadaniy strukturasi” deb nomlangan ikkinchi faslda “boylik” konseptini til va madaniyat nuqtayi nazaridan tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Ushbu faslda “boylik”ning lingvistik ifodalari, ya'ni paremik birliklar – maqollar va frazeologik tuzilmalar orqali ifodalanishi ko'rsatiladi. Bu tahlil orqali “boylik” konsepti faqat moddiy jihatlar bilan cheklanmasligi, balki ma'naviy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan ham bog'liq ekanligi ochib beriladi. Shuningdek, boylikning milliy madaniyatdagi o'rni va u til orqali milliy xarakter va qadriyatlarni qanday aks ettirishi o'rganiladi. Turli tizimli tillardagi boylik tushunchalari bilan taqqoslash orqali konseptning turli madaniyatlardagi o'xshash va farqli jihatlari ochib beriladi. Jumladan, o'zbek madaniyatida boylik tushunchasi keng va ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, uning o'rni va ahamiyati bir necha asosiy tushunchalarda namoyon bo'ladi. Jumladan: **moddiy boylik:** *Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli; Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat* va hkz; **ma'naviy boylik:** o'zbek madaniyatida ma'naviy boylik, ya'ni ilm, bilim, axloq, hunar, kamtarlik, farosat, sog'lik va ma'rifat moddiy boylikdan ustun qo'yiladi. Masalan, *Kitob – xazina, bilim – boylik; Kamtarlik – katta davlat; Boylikning boshi – sog'liq; Salomatlik – tuman boylik; Onalik uyning ori bor, otalik uyning – zari; Yaxshi xotin – xazina; Do'sting – boyliging; Pul ortirma, do'st orttir; Xalq do'stligi – yurt boyligi; Bolasi ko'p bo'lar boy, bolasi yo'q – quruq soy; Davlating – ota-onang, savlating – o'g'il-qizing; Davlatning boshi – farzand; Hovli olma, qo'shni ol; Xayrli qo'l qayrilmas; Saxiyning oshi – xazinadan ko'proq; Saxiyning o'ng qo'li berar, chap qo'li bilmas; Baxil ehsondan qochar, xasis mehmondan qochar; Boyib ketsang bo'kirma, yo'l yurganda so'kinma; Davlat bitsa yomonga, o'zin sanar xoqonga; Moling ko'p bo'lsa, maqtanma, boshing ko'p bo'lsa, to'planma* va hkz.

Shuningdek, konseptning o'zida milliy-mental qadriyatlarni aks ettirishi paremik birliklar bilangina cheklanmasligi, balki toponimik nominatsiyalarda, u taalluqli bo'lgan xalq folklorida, milliy san'atida ham namoyon bo'lishi misollar tahlili asosida dalillab beriladi. Jumladan, “*Mingtepa*”, “*Ahmadbekhoji mehmonxonasi*” (Andijon), “*Ismoil Somoniy maqbarasi*” (Buxoro), “*Jo'ylangar qishlog'i*” (Jizzax), “*Qosim Shayx*” (Navoiy), “*Qodirxo'ja eshonning uyi*” (Namangan), “*Bibixonim*”, “*Registon*”, “*Go'ri Amir*”, “*Shohi-zinda*”, “*Al-Buxoriy majmuasi*”, “*Ark qal'asi*”, “*Sherdor madrasasi*”, “*Ulug'bek rasadxonasi*” (Samarqand), “*Axsikent*” (Sirdaryo), “*Murchbobo maqbarasi*”

(Surxondaryo), “*Ko‘kaldosh madrasasi*” (Toshkent), “*Norbo‘tabiy madrasasi*” (Farg‘ona), “*Ichan qal‘a*” (Xorazm), “*Chordangitepa*” (Qashqadaryo) kabi tarixiy yodgorliklar; “*Muqbil toshotar*”, “*Sehrli shamchiroq*”, “*Zumrad va qimmat*”, “*Ur to‘qmoq*” singari xalq ertaklari, “*Alpomish*”, “*Go‘ro‘g‘li*”, “*Rustamxon*” kabi dostonlar; “*Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam, odam – mehnati bilan*”, “*Zavqsiz ish – shavqsiz ish singari*” o‘zbek xalq maqollari; “*Semizlikni qo‘y ko‘taradi*”, “*Tuyaga yantoq kerak bo‘lsa, bo‘ynini cho‘zar*”, “*Bekorga mushuk oftobga chiqmaydi*” kabi o‘zbek xalq matallari; “*Nahoru nashta*”, “*Oyijon*”, “*Qilpillama*”, “*Bilak uzuk*”, “*Shoda-shoda marvarid*”, “*Qarg‘alar uchsa qaraylik*” kabi lapar va yallalar, “*Muborakbod*”, “*Yil boshi*”, “*Boychechak*”, “*Sumalak*”, “*Sust xotin*”, “*Choy momo*”, “*Ramazon*” kabi aytim-terma va marosim qo‘shiqlari; “*Uzun – uzun iz kelar, uzun bo‘yli qiz kelar, qoshginasi qaltirab, ko‘zginasi yaltirab*” (suv, ariq) singari topishmoqlar; “*Alla*”, “*Kelin salom*”, “*Ha, do‘rsa-do‘rsa, do‘rsa*” kabi xalq qo‘shiqlari; “*Tilla kampir*”, “*Shoh Iskandar ibrati*”, “*Muqbil va Mudbir*” kabi mashoyixlar hikoyalari tahlili shular jumlasidandir.

Demak, o‘zbek folklori xalqning madaniy merosi va milliy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim ma‘naviy boylik hisoblanadi. O‘zbek madaniyatida “boylik” konsepti nafaqat moddiy resurslar, balki ma‘naviy, oilaviy va jamoaviy qadriyatlar bilan ham uzviy ravishda bog‘liqdir. Mazkur konseptga nisbatan munosabat axloqiy mezonlar va jamoa manfaatlari ustuvorligini inobatga olgan holda shakllanadi hamda ular ma‘lum bir konseptda aks etadi.

Rus milliy madaniyatida esa “boylik” konsepti ijtimoiy mavqe va tarixiy an‘analarga tayangan holda, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘un tarzda talqin etilishi *Копейка рубль бережет, а рубль голову стережет; Деньги счет любят, а хлеб меру; Не деньги богатство, а бережливость да разум; Богат ждет пакости, а убог радости; Богат творит, как хочет, а убог – как может; Душа дороже денег; Здоров буду – и денег добуду; Уговор дороже денег; Богатство – грязь, ум – золото* kabi misollar tahlili orqali “boylik” konseptining lingvomadaniy strukturasi aniqlanadi. Shuningdek, “*Скупой мужик*”, “*Каша из топора*”, “*Морозко*”, “*Жадный старик*”, “*Сказка о рыбаке и рыбке*”, “*Курочка Ряба*”, “*Теремок*”, “*Колобок*”, “*Репка*” kabi rus xalq ertaklari, “*Руслан и Людмила*” (A.S.Pushkin) kabi dostonlar, “*Маруся*”, “*Калинка*” kabi rus xalq qo‘shiqlari tahlili orqali “boylik” konseptining semantik va lingvomadaniy strukturasi qiyosan tahlil etiladi. Shu bilan birga rus madaniyatida ham boylik nafaqat moddiy, balki ma‘naviy va ijtimoiy qadriyatlar bilan ham bog‘liq. U xayriya va jamoat farovonligiga xizmat qilganda ijobiy baholanishi, lekin haddan tashqari boylikka intilish axloqiy nuqson sifatida ko‘rilishi yoritib beriladi.

Ingliz tilida “boylik” konsepti moddiy farovonlik va shaxsiy muvaffaqiyatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatidagi semantik strukturaga ega bo‘ladi. U tarixiy va madaniy omillar ta‘sirida shakllanib, mustaqillik, mehnatsevarlik va ijtimoiy maqomning muhim mazmuniy strukturasi ega bo‘lgan. Ingliz tilida “boylik” konsepti semantik strukturasi shaxsiy muvaffaqiyatning ramzi, ijtimoiy maqom, shaxsiy erkinlik, etik me‘yorlarga rioya qilish, erkin bozor va ishbilarmonlik muhiti, moliyaviy mustaqillik va ehtiyotkorlik kabi ko‘p qatlamli bo‘lib, bu semantik struktura *Early to bed and early to rise makes a man healthy, wealthy and wise; From rags to riches; Money makes the man; Climbing the ladder of success* kabi iboralarda insonning o‘z mehnati va sa‘y-harakatlari bilan boylikka erishishini ma‘qullasa, *Money answers all*

things; Money has no smell; Money makes the man; Money talks; He who has the gold makes the rules; Money opens all doors; A rich man's joke is always funny; Money makes the mare go; With money in your pocket, you are wise and you are handsome and you sing well too kabilarda ijtimoiy maqom va shaxsiy erkinlik g'oyalari ilgari suriladi. *A penny saved is a penny earned; Take care of the pence and the pounds will take care of themselves; In for a penny, in for a pound; Money does not grow on trees; Save for a rainy day; Cut your coat according to your cloth; Look after the pennies, and the pounds will look after themselves; Neither a borrower nor a lender be; A fool and his money are soon parted* kabi maqollar moliyaviy mustaqillik va ehtiyotkorlik kabi qarashlarni jamlaydi. *Money spent on the brain is never spent in vain* kabi maqollarda ilm-fan va ta'limga sarmoyani ifodalasa, *Honesty is the best policy* kabi ibora etik me'yorlarga rioya qilish, ya'ni boylikka etik me'yorlar asosida erishish muhimligini ta'kidlaydi. *If you touch pot, you must touch penny* erkin bozor va ishbilarmonlik muhitini asosiy boylik sifatida ko'rsatadi.

Demak, o'zbek, rus va ingliz madaniyatlarida "boylik" konsepti ma'naviy qadriyatlar va jamoat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu umumiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Biroq boylikka bo'lgan munosabat har bir madaniyatning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi va madaniy an'analariga ko'ra farqlanadi. Shu bois har bir madaniyatda boylikning axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy talqini o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bobning uchinchi fasli "*Boylik*" konseptining leksik-semantik talqinlari" deb nomlangan bo'lib, unda konseptning tildagi ifodalanishi leksik, semantik va frazeologik tahlillar asosida yoritiladi.

Konseptning leksik-semantik jihatlari uning madaniy va milliy xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. O'zbek madaniyatida "boylik" konseptiga nisbatan ham ijobiy, ham salbiy munosabatlar mavjud bo'lib, bu yondashuv xalqning qadriyat va urf-odatlarida aks etadi. Boylikka ijobiy munosabatning asosiy jihatlari quyidagi maqollarda o'z aksini topadi: *Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli; Mehnat qilsang, yasharsan, katta-katta osharsan; Yuz tuman oltindan hunar yaxshi* (o'zbek xalq maqollari). *Ota-ona (farzandiga) taxt yaratadi-yu, baxt yarata olmaydi*⁵⁵. *Ko'ngli ochiqniq – qo'li ochiq, qo'li ochiqning – yo'li. Maqtasang, saxiyni maqta, toptasang, baxilni topta. Xayrli qo'l qayrilmas* (o'zbek xalq maqollari). *Bilim – davlatdan qimmat; Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar; Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol; Boylik boylik emas, ahillik boylik; Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmi* kabi maqollarda *mehnatsevarlik, halollik, farovonlik, saxovatpeshalik* semalari namoyon bo'ladi.

"Boylik" konseptiga nisbatan salbiy munosabatning asosiy jihatlari *Boyning o'g'li kelsa – to'rga, kambag'alning o'g'li – go'rga; Kambag'al – piyoda, boy – tuyada; Moling borida – ana do'st, moling yo'g'ida – qani do'st; Boy bo'lsang, kunda hayit, kunda to'y, yo'q bo'lsang, kunda hasrat, kunda o'y; Bozorda bari bor, puling bo'lmasa, nari bor; Boy kiysa – qulluq bo'lsin; Kambag'al kiysa – qayoqdan olding; Birov gul deydi, birov – pul. Boyning qorni besh, biri hamisha – bo'sh; Puldorning ota-onasi yo'q; Qizlar gulni der, boy – pulni; Qizlar qizilga uchar, savdogar pulni quchar, Davlat bitsa yomonga, o'zin sanar xoqonga; Yomondan qarzdor bo'lsang, ko'p ichida yoqangdan olar; Yomonning davlati – yaxshining ofati* kabi paremalarda o'z ifodasini topadi va ular *ijtimoiy tengsizlik, axloqiy qadriyat, adolatsizlik, boylikka haddan ziyod muhabbat qo'yish, hasad,*

⁵⁵ <http://fmc.uz/maqollar.php> (murojaat sanasi: 21.09.2024)

adolatsiz raqobat konseptlarini ifodalaydi.

Turli tizimli tillarda “boylik” konseptini ifodalovchi frazeologizmlar milliy-madaniy qarashlarga asoslanadi hamda ularning konseptual xususiyatlari milliy-mental tafakkur bilan bog‘liq bo‘ladi. Har bir til va madaniyatda “boylik” konseptining o‘ziga xos talqini hamda ifoda vositalari mavjud bo‘ladi.

*To be born with a silver spoon in one’s mouth (born rich)*⁵⁶. – Boy oilada tug‘ilmoq. – Родиться с серебряной ложкой во рту, родиться в богатой семье. *They say she was born with a silver spoon in her mouth, but judging by the size of her mouth it must have been a ladle*⁵⁷. – Aytishlaricha, u og‘zida kumush qoshiq bilan tug‘ilgan ekan, ammo og‘zining kattaligiga qarab hukm chiqaradigan bo‘lsak, u qoshiq emas, cho‘mich bo‘lgan bo‘lishi kerak. Bu ingliz milliy madaniyatiga xos bo‘lsa, o‘zbek tilida *og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham, boyning bolasi gapirsin; Kunda yegan och, yilda yegan to‘q* kabi matal mavjud. Chunki o‘zbek madaniyatida “boylik” konsepti *oltin, tilla, kumush* kabi qimmatbaho metallar bilan emas, balki axloqiy-ma’naviy qadriyatlar orqali shakllanadi.

To cross (someone’s) palm with silver [Fig. to pay money to someone in payment for a service.] – Biror kimsa qilgan xizmati uchun pul bermoq – Заплатить деньги кому-либо за услугу, “посеребрить ручку”. *I crossed the taxi driver’s palm with silver to take me to the airport as soon as possible*⁵⁸. – Я позолотил ручку таксисту, чтобы он отвез меня в аэропорт как можно скорее.

Rus tilidagi *позолотить ручку, посеребрить ручку* ingliz tilidagi *to cross (someone’s) palm with silver* kabi iboralar xizmat uchun beriladigan pulni nazarda tutmoqda, ya’ni lo‘lilar fol ochish xizmati uchun qo‘llariga kumush yoki tilla tangalar berishni so‘ragan jumllaridan kelib chiqqan. O‘zbek madaniyatida bunday xizmat, ya’ni ko‘cha-ko‘yda fol ochish, ochtirish mavjud emasligi sababli tilda ham bunday ibora uchramaydi.

*Filthy rich*⁵⁹ – Itining tuvagi ham tillodan; juda boy – Очень богатый. *The preacher and his wife moved into a mansion; suddenly, they’re filthy rich*⁶⁰. – *Ruhoniy va uning хотини qasrga ko‘chib o‘tishdi; birdan ular juda boyib ketishdi.* – Проповедник с женой переехали в особняк; внезапно они оказались непристойно богаты.

Ingliz tilidagi *filthy rich* “iflos boy” iborasi ilgari juda katta boylikka ega bo‘lgan va nohaq yo‘l bilan boyib ketgan odamlarni tasvirlash uchun qo‘llangan. Hozirgi kunga kelib, *filthy rich* iborasining ma’nosi biroz yumshab, “g‘oyat katta boylikka ega bo‘lgan odamlar” haqida so‘z yuritilganda ishlatiladi, hatto ular o‘z mol-mulklarini halol yo‘l bilan topgan bo‘lsalar ham.

Rus tilida katta boylikka erishgan insonlarni *богач, миллионер, миллиардер, олигарх, плутократ, Крез, хозяин жизни, зажиточный, состоятельный человек, капиталист, деньгами обросший, магнат, туз, толстосум* kabi so‘zlar bilan tasvirlanadi. *Миллионер, миллиардер* leksemalari keyingi davrlarda yuzaga kelgan.

Demak, “boylik” konsepti turli tillar va madaniyatlarda moddiy, ma’naviy, ijtimoiy va tabiiy resurslar sifatida ko‘p qirrali va keng qamrovli ma’noga ega.

⁵⁶Book of idioms, slang, special expressions, idiomatic Language. – Texas, 2001. – P.7.

⁵⁷Comparison of British and American Idioms with Equivalent Meaning. – USA, 2006. – P.31.

⁵⁸Farlex Idioms and Slang Dictionary. – USA, 2017. – P.2591.

⁵⁹Reference Guide to American English Idioms. – Washington, 2010. – P.26.

⁶⁰101 American English Idioms, Understanding and Speaking English Like an American. – Illinois, 1975. – P.78.

Unga nisbatan ijobiy munosabat halol mehnat va xayriya bilan bog'lansa, salbiy munosabat ijtimoiy tengsizlik va axloqiy qadriyatlardan chekinish bilan izohlanadi.

Ishning uchinchi bobi **“Boylik” konseptining milliy-mental tuzilishi**” deb nomlanib, uning birinchi fasli *“Turli tizimli tillar madaniyatida “boylik” konsepti”*ni tadqiq etishga bag'ishlangan. Bu bobda konsept madaniyatni o'rganishda muhim rol o'ynashi va uning asosida qadriyatlik tamoyili yotishi ta'kidlanadi. Rus olimlari V.I.Karasik va I.A.Sternin tahriri ostida chop etilgan *“Антология концептов”* asarida ham lingvomadaniy konseptlarning qadriyatli, obrazli va tushunchaviy komponentlardan tashkil topgani qayd etiladi⁶¹. Shu nuqtayi nazardan, konsept yadrosi har doim muhim tushuncha asosida shakllanib, madaniyatni tadqiq etishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek, rus va ingliz milliy madaniyatida “boylik” konsepti nafaqat moddiy ne'matlar, balki ma'naviy qadriyatlar va jamiyat oldidagi mas'uliyat bilan ham bog'liqligi aks etadi. Uchala madaniyatda ham “boylik” konsepti mehnatsevarlik, bilim olish, oilaviy qadriyatlar va jamiyatga foydali bo'lish kabi mezonlar asosida baholanadi. Biroq “boylik” konseptiga turli jihatdan yondashiladi.

O'zbek milliy madaniyatida “boylik” konsepti nafaqat moddiy ne'matlar bilan, balki ma'naviy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'liq. Masalan, *sep* leksemasi orqali ifodalanadigan ma'nolar shunga yorqin misol bo'la oladi. *Boyning qizi sepi bilan, yo'qning qizi epi bilan* maqolida moddiy boylik ustuvor deb ko'rsatilsa, *Sepli kelin emas, epli kelin olgin* naqlida ma'naviy boylik – hayotiy tajriba, mahorat, aql, zakovat kabi fazilatlar moddiy boylikdan ustun qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, o'zbek milliy madaniyatida ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati juda katta ekanini tasdiqlaydi.

Rus madaniyatida ham shunga o'xshash konseptual qarashlar kuzatiladi. *He bери жену богатую, бери жену непочатую* maqolida ma'naviy boylik, xususan, poklik, or-nomus moddiy boylikdan ustun deb talqin etiladi. Ammo bu yerda o'zbek madaniyatidagi *eplik* yoki *mahorat* birinchi darajada emas, balki qizning bokiraligi, uyala olish qobiliyati, or-nomusi kabi ma'naviy me'yorlar e'tibor markazida turadi.

Ingliz madaniyatida esa ma'naviy va moddiy boylik munosabati ko'proq pragmatik yondashuv bilan belgilanadi. Masalan, *A good wife is a treasure* [tar. Yaxshi xotin – xazina] yoki *Money can't buy love* [tar. Pul sevgini sotib ola olmaydi] iboralarida ma'naviy qadriyatlar puldan, moddiy ne'matlardan ustun qo'yiladi. Biroq ingliz maqollari va iboralarida *ma'naviy boylik* konseptining namoyon bo'lishi ko'proq shaxsiy hissiyotlar, muhabbat va ishonch orqali yoritiladi, or-nomus va bokiralik masalalari esa rus madaniyatidagicha markaziy o'rin tutmaydi.

Shu tariqa, uch madaniyatdagi “boylik” konseptida ma'naviy va moddiy qirralar turlicha ifodalansa-da, ularda umumiy bir jihat bor: ma'naviy qadriyatlar moddiy ne'matlardan ustun qo'yiladi. Biroq bu ustunlikning mazmuni madaniy-mental o'ziga xosliklarga ko'ra farq qiladi: o'zbek madaniyatida mahorat va zakovat, rus madaniyatida or-nomus va poklik, ingliz madaniyatida esa hissiyotlar va shaxsiy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Har uchala madaniyatda ham boylik ijobiy konsept sifatida sog'liq, sihat-salomatlik, farovonlik, oila, farzandlar va do'stlar insondagi go'zal xislatlarni ifodalaydi: *Salomatlik – tuman boylik; El sog'ligi – yurt boyligi*; (o'zbek xalq

⁶¹ Антология концептов. В 6 томах. – Волгоград: Парадигма, 2005. – С.24.

maqollari); *Здоровье дороже денег; Здоровье дороже богатства*⁶² (rus xalq maqollari); *Health is better than wealth; Good health is above wealth* (ingliz maqollari); *Yer boyligi – el boyligi; Money answers all things.* [tar. *Pul hamma narsaga labbay deydi*] (ingliz maqoli); *Yaxshi xotin – xazina; Davlatning boshi farzand; Farzanding – davlating, fazilating – ziynating; Kunda kasal – kumush xotin, oyda kasal – oltin xotin. Pul orttirma, do‘st orttir; Odam oltindan aziz;* (o‘zbek xalq maqollari); *He надобен и клад, коли у мужа с женой лад; He имей сто рублей, а имей сто друзей;* (rus maqoli); *A good wife and health are a man’s best wealth.* (ingliz xalq maqoli); *Kamtarlik – katta davlat; Kamtar kerilmaydi, mol – dunyoga berilmaydi* (o‘zbek xalq maqollari); *Журавлиная походка не нашей стати.* (rus maqoli); *Little things please little minds* (ingliz maqoli). “*Bu dunyoda boylik tilasang o‘zing, odil bo‘l, odillik uzra tut so‘zing*”⁶³. *Qanoat – zo‘r boylik; Sabr bilan mehnat qilgan boy bo‘lar* (o‘zbek maqoli); *Тихо не лихо, а смиреннее – прибыльнее; Умей довольствоваться малым;* (rus maqoli); *He is rich that is satisfied; The greatest wealth is contentment with a little;* (ingliz maqoli); *Sabr tagi – sariq oltin, sabr bilan chiqar oting.* (o‘zbek xalq maqoli); *Терня, и камень треснет.* (rus maqoli); *Patience, money and time bring all things to pass* [tar. Sabr, pul va vaqt hamma narsani yengar] (ingliz maqoli).


Boylik salbiy konsept sifatida *Yema, ichma, bo‘l baxil, boy bo‘lmasang, men kafil Скупой платит дважды; The love of money is the root of all evil;* (baxillik va xasislik); *Воуning gapi – o‘ng, yo‘qning gapi – to‘ng; Деньги – хорошие слуги, но плохие хозяева; Money talks* (adolatsizlik); *Davlat bitsa yomonga, o‘zin sanar xoqonga; Деньги, что камень: тяжело на душу ложатся* (yomonlik); *Poraxo‘r – boymas, o‘g‘ri – koymas; Богатому идти в суд – трын – трава, бедному – долой голова; Money makes the mare go* (insofsizlik va poraxo‘rlik); *Baxtsizlikda oltin ham xira; He в деньгах счастье. Money can’t buy happiness* (baxtsizlik) kabi konseptlarni ham ifodalaydi.

Demak, turli madaniyatlarda boylik konsepti keng va ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lib, u o‘zi taalluqli xalqning milliy an‘ana va qadriyatlari asosida shakllanadi.

Bobning ikkinchi fasli “*Boylik*” konseptining assotsiativ maydoni”ni tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda respondentlar bilan o‘tkazilgan so‘rov natijalari tahlil qilingan hamda shu tahlil asosida “boylik” konseptining lingvomadaniy strukturasi aniqlangan. Jumladan, “boylik” stimul so‘z sifatida taqdim etilganda, quyidagi natijalar namoyon bo‘ldi. O‘zbek millatiga mansub respondentlarning 19,8 % pul, 15% sog‘lik, 11% ota-ona, 8,8% baxt, sayohat, 5,5% sevimli kasb, 4,4% tinchlik-xotirjamlik, omad, 3,3% go‘zallik, 2,2% iymon, oila, 1,1% bilim kabi assotsiatsiya uyg‘otgan bo‘lsa (1-grafik), rus millatiga mansub respondentlarda 17,% pul, 14,7% sog‘lik, baxt, 11,8% oila, 5,9% muvaffaqiyat, go‘zallik, 2,9% ota-ona, muhabbat, imkoniyat, brilliant kabi assotsiatsiyani uyg‘otgan (2-grafik). Ingliz millatiga mansub respondentlarda esa 27,7% pul, 21,5% hayot, 12,3% muhabbat, 10,8% baxt, 9,2 % kuch, 4,6% ishonch. 3,1% oltin kabi assotsiatsiyalarni uyg‘otgan (3-grafik).

⁶² Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs. Maqollar. Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – B.131.


⁶³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga eltuvchi bilim). – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – B.61.



1-grafik



2-grafik



3-grafik

Bu assotsiatsiyalarning lingvomadaniy strukturasi so‘rovnom natijalari asosida xalqlarning milliy-mental xususiyatlari bilan bog‘liq holda tahlil etildi. “Boylik” konseptining assotsiativ maydoni inson ongida boylik bilan bog‘liq turli tushuncha va so‘zlarning paydo bo‘lishi va ularning sabablari tahlil qilindi. Shuningdek, “boylik” konseptining leksik-semantik maydoni aniqlandi. “Boylik” konseptining sintaktik maydoni tadqiqida tildagi boylik bilan bog‘liq so‘zlar va ularning o‘zaro aloqasini ifoda etuvchi turli sintaktik tuzilmalar ham tahlilga tortildi.

Xulosa qilib aytganda, “boylik” konseptining assotsiativ, leksik-semantik va sintaktik maydonlari uning murakkab va ko‘p qirrali mazmunini ochib beradi. Mazkur konsept moddiy va nomoddiy qadriyatlarni, shuningdek, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi til birliklari orqali ifodalanadi.

Bobning so‘nggi fasli “*Boylik*” konseptining *geshtalt* strukturasi” deb nomlangan bo‘lib, mazkur faslda boylik konseptining inson ongida yaxlit va tizimli shakllanishi *geshtalt* nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Ma’lumki, “*geshtalt*” termini nemis tilidan olingan bo‘lib, “yaxlit shakl” yoki “butun obraz” ma’nosini bildiradi. *Geshtalt* psixologiyasiga ko‘ra, inson ongida predmet va hodisalar alohida qismlar emas, balki yaxlit va uyg‘un tuzilma sifatida idrok etiladi⁶⁴. Shuningdek, *geshtalt* – bu inson ongida alohida hodisalarni tartibga soluvchi murakkab aqliy tuzilma bo‘lib, u hissiy va ratsional elementlarni, shuningdek, obyektning dinamik va statik jihatlarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun u inson tafakkurida voqelikni yaxlit va tizimli tarzda idrok etishga xizmat qiladi⁶⁵. Bu nazariya XIX asr oxirida X.Erenfels tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u idrok jarayonida hissiy va ratsional komponentlarning integratsiyasini ta’minlash masalalarini tadqiq etish imkonini beradi⁶⁶. “Boylik” konseptini tadqiq etishga shu nuqtayi nazardan yondashilib, “boylik” konseptini alohida belgilar va xususiyatlar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit semantik birlik sifatida shakllanishi va idrok qilinishi asoslandi. Bunday yondashuv esa “boylik” konseptining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va ma’no aloqalarini aniqlash, konseptual modelini yaratish imkonini berdi. Chunki “bilish jarayonida sodir bo‘ladigan yaxlitlik va uning bo‘laklari o‘rtasidagi jonli aloqani e’tirof etish *geshtalt* nazariyasi tamoyillari va tahlil metodlarini rad etmaydi”⁶⁷. Shuning uchun “boylik” konseptining *geshtalt* strukturasi yaqinlik, o‘xshashlik, yopiqlik tamoyillari asosida tadqiq qilindi.

⁶⁴ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.47.

⁶⁵ <https://rujazz.narod.ru/szuszarina/glossarij> (murojaat sanasi: 28.11.2024)

⁶⁶ Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Восток-Запад, 2007. – С.84.

⁶⁷ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.49.

Geshtalt nazariyasi “freym” bilan bog‘liq bo‘lib, freym nazariyasi 1974-yilda M.Minskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U inson tajribasi va bilimlarini strukturalashgan shaklda ifodalash modelidir. Freymlar inson ongida muayyan hodisa yoki obyektga doir umumiy ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonini tashkil etadi. Bu model kognitiv jarayonlarni tushunish va sun’iy intellekt tizimlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega⁶⁸. Freym – bu semantik bog‘liq tushunchalarni anglash va tartibga soluvchi bilimlar tizimi bo‘lib, u orqali “boylik” konseptining barcha mazmuniy strukturasi yaxlit shaklda idrok qilinadi. Skript tushunchasi esa freymda ifodalangan mazmuniy yaxlitlikning strukturaviy modelda namoyon bo‘lishidir. Bu konseptual tuzilma tarkibiy jihatdan ssenariyga yaqin bo‘lib, ba’zan uni to‘liq takrorlashi mumkin⁶⁹. Shuning uchun “skript” madaniy qadriyatlar va urf-odatlarini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Masalan, “Vavilonlik eng boy odam” hikoyasi asosida shakllangan “boylik” skripti boylikka erishish va uni boshqarishning an’anaviy yo‘llarini aks ettiradi. Skriptda asosiy qadriyat sifatida bilim, intizom va sabr bilan moliyaviy mustaqillikka erishish ko‘rsatilgan.

Demak, “boylik” konseptining geshtalt strukturasi skript, freym tahlillar orqali konseptining inson ongida yaxlit va tizimli shakllanishini ochib beradi.

XULOSA

1. Konsept – bu inson ongida tajriba va bilimlar asosida shakllanadigan mavhum tushunchalar majmuasidir. Ushbu termin falsafa, mantiq, adabiyotshunoslik hamda tilshunoslik kabi turli fan sohalarida faol qo‘llanishi natijasida har bir sohaga xos talqinlarga ega. Biroq ushbu ta’riflarning barchasini umumlashtirgan holda, konseptni inson ongida shakllangan tasavvur, xotira va ong birligi orqali namoyon bo‘ladigan, biror narsa yoki hodisa bilan bog‘langan ma’no birligi sifatida izohlash mumkin. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, konsept – bu insonning milliy va mental xususiyatlari, shaxsiy tajribasi hamda umumiy bilim zaminida shakllangan, til orqali ifodalanadigan kognitiv birlikdir.

2. Kognitivlik tafakkur faoliyatini anglatib, tushunish, anglash, fikrlash, eslab qolish, tasniflash, idrok etish, voqea-hodisalarni tanish va tildan foydalanish kabi turli xil jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

3. Olamning konseptual manzarasi – bu inson tafakkurida bilish va amaliy faoliyat asosida shakllanadigan obyektlar haqidagi tizimli bilimlar majmuasidir. Uning asosiy birligi bo‘lgan konsept voqelikning g‘oyaviy, hissiy, assotsiativ va madaniy jihatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Olamning lisoniy manzarasi esa insonning til vositasida olamni qanday tasavvur qilishi, uni qanday nomlashi va tushunishini ifoda etuvchi konseptual modeldir. Bu model til egasining milliy tafakkuri va lingvomadaniy tajribasi bilan bevosita bog‘liqdir.

4. “Boylik” konsepti – bu moddiy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni o‘z ichiga oluvchi ko‘p qirrali tushunchadir. U o‘zbek, ingliz va rus madaniyatlarida turlicha mazmun kasb etib, har bir madaniyatda jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va dunyoqarashiga xos semantik yo‘nalishda talqin etiladi.

5. Har bir madaniyatda “boylik” tushunchasi o‘ziga xos qadriyatlar tizimi, ijtimoiy me’yorlar va tarixiy-an’anaviy omillar asosida shakllanadi. O‘zbek, ingliz va rus madaniyatlarida ushbu tushunchaning umumiy jihati shundaki, ma’naviy

⁶⁸Marvin Minsky. A Framework for Representing Knowledge. – New York, 1981. – P.34.

⁶⁹Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.38.

boylik – xususan, bilim, axloq va axloqiy qadriyatlar moddiy boylikdan ustun qo‘yiladi.

6. “Boylik” konsepti turli tizimli tillar madaniyatida moddiy, ma’naviy, ijtimoiy va tabiiy resurslarni qamrab oluvchi keng qamrovli va ko‘p qirrali konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu konsept paremik va frazeologik birliklar orqali til va madaniyatda mazmunan boyitilib, ijtimoiy ongda muhim axborot va kommunikativ vazifani bajaradi. Boylikka ijobiy munosabat halol mehnat va xayriya bilan bog‘liq bo‘lsa, salbiy yondashuv axloqiy qadriyatlarning yemirilishi va ijtimoiy tengsizlik holatlari bilan uzviy aloqadordir.

7. O‘zbek, rus va ingliz madaniyatlarida “boylik” konsepti har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlari asosida paremik va frazeologik birliklar orqali turlicha talqin etiladi. O‘zbek madaniyatida boylik, ko‘pincha, ma’naviy yuksaklik, saxovat, mehnatsevarlik va ijtimoiy foyda bilan bog‘liq bo‘lsa, rus madaniyatida boylik konsepti ehtiyotkorlik, qanoat bilan bog‘liq obrazlar orqali ifodalanadi. Ingliz madaniyatida esa boylik ko‘proq shaxsiy muvaffaqiyat, iqtisodiy mustaqillik va individual erkinlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

8. Konseptning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda frazeologik birliklar muhim ahamiyatga ega. Ular konseptga tasviriy va emotsional mazmun berib, uning madaniy qiymatini oshiradi.

9. Assotsiativ tushunchalar inson fikrlashini tezlashtirib, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va mavjud bilimlar bilan bog‘lashga yordam beradi. “Boylik” konsepti assotsiativ va leksik-semantik maydonlarda moddiy va ma’naviy jihatlarni qamrab oladi.

10. “Boylik” konsepti freym va skriptlar orqali turli madaniyatlardagi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Bu nazariyalar til, tafakkur va madaniyatni kompleks o‘rganishda qo‘llanadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES Sc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT
FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

BARNO MUKHTOROVA ALISHEROVNA

**LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF THE CONCEPT OF
*WEALTH***

10.00.11 – Theory of language. Applied and computational linguistics

ABSTRACT
of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL sciences

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation has been registered by Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under No. B2023.1.PhD/Fil3233.

The dissertation was completed at the Fergana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website (www.fdu.uz) and on the information and educational portal “Ziyonet” at (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Khodjaliyev Ismail Tadjibayevich**
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Official opponents: **Madrakhimov Ilkhomjon Sobirovich**
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

Marufova Zulfiya Nabiyevna
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Associate Professor

Leading organization: **Namangan state university**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council of Fergana State University, which awards scientific degrees under the title DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02, “_____”, 2025 at _____. (Address: 100151, Fergana city, B.Marginoniy street, 105. Tel: (99873) 244-57-82; email: info@fdu.uz).

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Fergana State University (Registered under number _____). Address: Fergana city, Murabbiylar street, 19. Tel: (99873) 244-44-02.

The dissertation abstract was distributed on “_____”, 2025.

(Registry report number _____ dated _____ 2025).

G.Z.Rozikova,
Chairman of the Doctor’s Degree for
awarding Scientific Council,
Doctor of Philology, Professor

M.T.Abdupattoyev,
Scientific Secretary of the Scientific
Council for awarding scientific degrees,
Doctor of Philology, Professor

M.Y.Mamajonov,
Chairman of the Scientific Seminar
under the Scientific Council
for awarding scientific degrees,
Doctor of Philology, Professor

INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD))

The actuality and necessity of the topic. In global linguistics, special attention is being paid to the study of the relationship between language and thought. This is because, in order to examine language as a complex system, it is essential to explore the interaction between content and form, investigate their communicative and semiotic nature and apply the conclusions drawn to address problems related to artificial intelligence. Therefore, modern linguistics increasingly emphasizes approaching linguistic facts from an anthropocentric perspective, which, in turn, lays the foundation for the development of cognitive linguistics. Although existence and objective reality evolve according to their own inherent laws, independent of human consciousness, these laws are reflected within the human mind. This reflection takes shape based on national-mental, psychological, socio-political and linguocultural factors. As a result, adopting a linguocultural approach to the unity of language and thought holds significant practical importance.

In world linguistics, a linguocultural perspective on language has contributed to the formation of the cognitive paradigm. Studying linguistic phenomena in connection with the national and cultural worldview of native speakers has become one of the pressing issues in the field. In particular, there is a growing need to scientifically and theoretically examine the semantic structure of the concept of *wealth*, its potential for forming a conceptual sphere and its role in shaping the conceptual and linguistic picture of the world.

In Uzbek linguistics, significant research has been conducted on the *concept* and its defining characteristics from a scientific-theoretical perspective. Studies have examined the *concept* and its types, its role within the cognitive paradigm, linguistic realization, scenarios, scripts, frames, gestalt, and the national-cultural aspects of linguistic-cognitive activity. However, there remains a need for further investigation into the semantic, syntactic, syntagmatic, pragmatic, and derivational properties of concepts, particularly regarding the linguocultural features of specific concepts such as *wealth*. This includes exploring its national-mental attributes, lexical and phraseological interpretations, the perception of *wealth* in Uzbek national culture, its associative field, its gestalt representation, its semantic structure and its overall semantic-strategic framework. As stated, "...our next task is to develop effective mechanisms aimed at applying research findings in practice and ensuring the sustainable development of science and scientific-innovative activities"¹. In the modern era, the development and current state of research related to the linguocognitive mechanisms of a language's national-mental characteristics on a global scale highlight the necessity of further investigation. This underscores the importance and relevance of the topic.

The present research contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks outlined in the following normative-legal documents of the Republic of Uzbekistan: Presidential Decree No. PF-4958 dated February 16, 2017 "On the Improvement of the Postgraduate Education System"; Presidential Decree No. PF-5850 dated October 21, 2019 "On Measures to Fundamentally Enhance the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language"; Presidential

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.168-174.

Decree No. PF-6084 dated October 20, 2020 “On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in the Country”; Presidential Decree No. PF-6097 dated October 29, 2020 “On Approval of the Concept for the Development of Science until 2030”; Presidential Decree No. PF-60 dated January 28, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; as well as Cabinet of Ministers Resolutions No. PQ-2789 dated February 17, 2017 “On Measures to Further Improve the Activities of the Academy of Sciences, the Organization, Management, and Financing of Scientific Research”; No. PQ-2909 dated April 20, 2017 “On Measures to Further Develop the Higher Education System”; and No. PQ-5117 dated May 19, 2021 “On Measures to Raise the Quality of Activities Aimed at Popularizing the Learning of Foreign Languages in the Republic of Uzbekistan to a New Level,” along with other relevant regulatory documents.

Compliance of the research with the priorities of development of science and technology of the Republic. This dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state”.

The level of study of the topic. A considerable body of scholarly and theoretical research on the notion of *concept* has been conducted by a number of world linguists. Among them are N.F.Alefirenko, Y.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, A.P.Babushkin, N.N.Boldyrev, A.Wierzbicka, V.V.Vinogradov, S.G.Vorkachev, V.G.Gak, A.A.Zalevskaya, T.A.Kildibekova, Y.N.Karaulov, N.A.Krasavskiy, Y.S.Kubryakova, I.A.Sternin, Z.D.Popova, V.N.Teliya, V.M.Toporov, and Y.V.Urison², whose works provide various interpretations of the concept and its essential characteristics. The term *concept* has been employed in disciplines such as cognitive linguistics, linguoculturology, literary studies, logic, and philosophy,

²Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Наука, 2010; Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // ВЯ, 1995. – № 1. – С.38-42; Арутюнова Н.Д. Аномалии и язык (к проблеме языковой «картины мира») // ВЯ, 1987. – № 3. – С.61-68; Бабушкин А.П. Квантитативные выражения с позиции когнитивной лингвистики // Язык и национальное сознание. – Воронеж, 1998; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. – Тамбов, 2000; Вежибицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1996; Виноградов В.В. Некоторые задачи изучения синтаксиса простого предложения // ВЯ, 1954. – № 1. – С.23-29; Воркачев С.Г. Национально-культурная специфика концепта любви в русской и испанской паремии // ФН, 1995. – № 3. – С.43-49; Гак В.Г. Высказывание и ситуация // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1973; Залевская А.А. Когнитивизм, когнитивная психология, когнитивная наука и когнитивная лингвистика // Когнитивная лингвистика. Современное состояние и перспективы развития. – Тамбов, 1998; Кильдибекова Т.А., Гафарова Г.В. Функционально-когнитивный словарь русского языка. – Уфа, 1997; Караулов Ю.Н. Семантический гештальт ассоциативного поля и образы сознания // Языковой сознание. Содержание и функционирование. – М., 2000; Красавский Н.А. Лингвистические методы исследования эмоциональной концептосфер // Лингвистические парадигмы: традиции и новации. – Волгоград, 2000; Кубрякова Е.С. Части речи с когнитивной точки зрения. – М., 1997; Стернин И.А. Концепт и языковая семантика // Связи языковых единиц в системе и реализации. Когнитивный аспект. – Вып. 2. – Тамбов, 1999; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996; Токарев Г.В. Афоризмы, репрезентирующие концепт «труд», в культурно-когнитивном освещении // Актуальные проблемы изучения и преподавания русского языка на рубеже XX-XXI веков. – Воронеж, 2001; Топорова В.М. Концепт «форма» в семантическом пространстве языка (на материале русского и немецкого языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2000; Убийко В.И. Концептосфера внутреннего мира человека в динамической модели языка // Язык и национальное сознание. – Вып. 2. – Воронеж, 1999; Урысон Е.В. Языковая картина мира vs обиходные представления (модель восприятия в русском языке) // ВЯ, 1998. – № 2. – С.71-77.

which demonstrates its universal nature. Approaching it from the perspectives of different fields has led to diverse definitions of the term *concept*.

In Uzbek linguistics, the study of the term *concept* dates back to the 1990s. During this period, scholars such as Sh.Safarov, O.Yusupov, D.Ashurova, N.Mahmudov, E.Mamatov, M.Rahmatova, D.Khudoyberganova, B.Mengliyev, T.Mardiev, G'.Khoshimov, M.Akhunov, N.Umarova, and Z.Akbarova³ began to pay attention to the phenomenon, publishing scholarly articles, conducting research and producing academic literature on the subject.

